ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2024

5-son
(Sentabr-Oktabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT		
	4	Korrupsiyaning oldini olishning asosi, korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali yo‘li – yosh avlodni korrupsiyaga qarshi ta’lim-tarbiyasini samarali tashkil etish, korrupsiyaga qarshi ta’limni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir
TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI		
S. Maxmudov	7	Korrupsiyaga qarshi kurash: pedagogikaning tadqıqot predmeti sifatida
Sh. Uchqurova	16	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarning mustaqil ta’limni takomillashtirish jarayonida til malakalarining rivojlanishi
B. Ziyatova	22	Talabalarda innovatsion tavafakkurni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (Pedagogika ta’lim muassasalari talabalari misolida)
M. Badalova	27	Ta’lim klasteri va uning mohiyati
N. Qodirov	30	Individual yondashuvi asosida talabalarda loyihalash-konstruksiyalash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish
D. Kamoljonova	34	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik kompetensiyalarini rivojlantirish
S. Azimova	38	Ota-onalarning pedagogik madaiyatini rivojlantirish – ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili (Oiladagi ta’lim-tarbiya muhitida)
TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI		
M. Umarova, R. Ziyayev	42	Organik kimyoda oksidlanish reaksiyalarini o‘rganish-II (Spirt, aldegid va ketonlar misolida)
M. Kuchkarov, M. Yusupov	46	Kimyoviy tajribalarni ijodiy yondashuv asosida tashkil etishning uslibiy imkoniyatlari
Sh. Raxmatullayeva	51	Boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshiriqlarining turlari va tavsifiy jihatlari
M. Alijonova	55	Bo‘lajak agronomlarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish metodikasining mavjud holati
R. Rasulova	59	O‘quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda hikoya janriga murojaat
M. Tursunqulova	63	Didaktik o‘yin tushunchasi va uning tarkibi
ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI		
A. Atamatov	67	O‘quv jarayonida interfaol platformalardan foydalanish
A. Raxmatullayeva	71	Umumta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishda blum taksonomiyasini qo‘llash
M. Imomova	76	Biologiya ta’limiga va o‘qituvchisiga qo‘yiladigan talablar
I. Kodirov	81	Muhandis energetik kadrlarni tayyorlasda “Nishon tumani quyosh fotoelektr stansiyasi” korxonasi – “muqobil energiya manbalari” kafedrasi darajasida dual ta’limni tashkil etish
G. Abilova, A. Yeshmuratova	88	Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali konchilik yo‘nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish
TA’LIMDA MENEJMENT		

A. Kenjaboyev	94	Bo‘lajak ta’im menejerini kasbiy tayyorlashning deontologik tamoyillari
M. Movlyankulova	100	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kompetensiyalarini rivojlantirishda rahbarning o‘rni
		TA’LIMDA MARKETING
H. Amirqulov	104	O‘zbekiston respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish uslubiyati
		JISMONITY TARBIYA VA SPORT
N. Alimova	108	Gender yondoshuv asosida o‘quvchilarning jismoniy tarbiya faniga qiziqishini shakllantirishning pedagogik shartlari
		MAKTABGACHA TA’LIM
F. Po‘lotov	112	Art texnologiyasi – maktabgacha yoshdagi bolalarining ijodiy rivojlanishini shakllantirish vositasi sifatida
H. Mizamova	115	Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini musiqiy ta’lim orqali rivojlantirish
M. Rizayeva	119	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni takomillashtirishda STEAM texnologiyasini qo‘llash
		ATROF-MUHIT MUHOFAZASI VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK
Sh. Mavlonov	122	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari
		QIYOSIY PEDAGOGIKA
S. Badriddinova	125	Chizmachilik mashg‘ulotlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish (Finlandiya Respublikasi ta’lim tizimi tajribasi asosida)
		МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ
Д. Хусанов, М. Фарманова	130	О методической проблеме связи цикличности и дозированности при создании математического терминологического аппарата учащихся физико-математических школ
Н. Каллибекова	135	Социально-педагогические аспекты исследования и формирования билингвизма (на основе анализа билингвизма в современной лингвистике)
К. Жумаева	140	Межкультурная коммуникация в многоязычной среде: роль билингвизма и культурного кода

Madina IMOMOVA,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy
instituti tayanch doktaranti

BIOLOGIYA TA’LIMIGA VA O‘QITUVCHISIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Annotatsiya

Maqolada hozirgi kun ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish, xalq ta’limi tizimida biologiya fanini interfaol metodlar asosida o‘qitish mexanizmlarini yaratish, pedagogik va didaktik asoslarini aniqlash hamda amaliyotga tadbiq etish, zamonaviy usullar asosida loyihalash, amalga oshirish va takomillashtirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish, biologiya fanidan bilimlarni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali ta’lim samaradorligini rivojlantirish borasida ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, biologiya ta’limi va o‘qituvchiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida ma’lumotlar bayon etiladi.

Tayanch so‘zlar. Ta’lim, pedagogik texnologiya, noan’anaviy usullar, axborot kommunikatsion texnologiyalari, o‘quv-uslubiy majmualar, innovatsiya, yangi texnologiyalar, ilmiy va innovatsion faoliyat, integratsiya, interfaol metodlar, ta’lim-tarbiya jarayoni.

В статье рассматриваются вопросы развития научного мировоззрения учащихся в современном образовательном процессе, создания механизмов преподавания биологической науки в системе народного образования на основе интерактивных методов, выявления и внедрения в практику педагогических и дидактических основ, создания научно обоснованной системы проектирования, реализации и совершенствования знаний по биологии на основе интегративного подхода. ведутся исследования. Также изложена информация о биологическом образовании и требованиях к учителю.

Ключевые слова. Образование, педагогические технологии, нетрадиционные методы, информационно-коммуникационные технологии, учебно-методические комплексы, инновации, новые технологии, научная и инновационная деятельность, интеграция, интерактивные методы, учебно-воспитательный процесс.

The article deals with the development of the scientific worldview of students in the modern educational process, the creation of mechanisms for teaching biological science in the public education system based on interactive methods, the identification and implementation of pedagogical and didactic foundations, the creation of a scientifically sound system for designing, implementing and improving knowledge of biology based on an integrative approach. research is underway. Information about biological education and teacher requirements is also provided.

Key words. Education, pedagogical technology, unconventional methods, information communication tenologies, educational and methodological complexes, innovation, new technologies, scientific and innovative activities, integration, interactive methods, educational process.

Bugungi kunda mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, jahonning yetakchi rivojlangan davlatlari qatoridan o‘rin olishi ko‘p jihatdan o‘sib kelayotgan yosh-avlodlarga bog‘liq. Shunday ekan, ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan har bir pedagog bugungi kun yoshlariga ta’lim va tarbiya berishdek mas’uliyatli vazifasini sidqidildan bajarishi, ta’lim jarayonlarini zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida sifatli va samarali tashkil etishi ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiya oliy ta’lim tizimini ijtimoiy

soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi.

Bugungi kunda mavjud va rivojlanayotgan yangi texnologiyalar ta'lim tizimini o'zgartirishi mumkin bo'lgan ulkan salohiyatga ega. Axborot kommunikatsion tenologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish aqliy va jismoniy rivojlanishida muommolari bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun bilim olish imkoniyatini yaratuvchi zaruriy vosita yekanligi isbotlandi.

Shu bois turli davlatlar tomonidan ta'lim siyosatini ishlab chiqishda mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Axborot kommunikatsion tenologiyalari yordamida tayyorlangan darslar faqat aqliy va jismoniy rivojlanishida muommolari bo'lgan bolalar va o'smirlar uchun bilim olish imkoniyatini berib cheklanib qolmasdan hozirgi vaqtda uyda o'tirgan holatda har bir fan yuzasidan ma'lumot va bilimlar sog'lom bolalarga hamda o'smirlarga, qolaversa maktabni tamomlagan katta yoshdagi insonlar ham foydalanib ilm olishiga qulayliklar yaratmoqda.

Hozirgi davrning dolzarb muommolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash va o'quvchilarga sifatli ta'lim berish. Buning uchun pedagoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Shu bilan birga pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiya tushunchasi haqida.

"Yangi pedagogik texnalogiya" yoxud "innovatsiya" tushunchasi tarkibida garchand yaqin yillardan beri qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning ildizlari o'zoq o'tmishga borib taqaladi. O'rta asrning buyuk mutafakkirlari Umar Xayyom, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino kabi olimlar izlanishga asoslangan o'qitish g'oyasini ilgari surganlar.

Umar Xayyom o'zining "Matematik traktatlari"da "Ozgina o'yla, o'zing topasan", "Fikrlasang bilib olasan" degan davatlar asosida o'qitish lozimligini qayd qiladi, Abu Nasr Farobiy moddiy borliqni fahmlash va bilishning asosi-fikrlashda ekanligi uqtiriladi.

Hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan "Yangi pedagogik texnologiya" (yoki innovatsiya-yangiliklarni amaliyotda qo'llash) noan'anaviy usullarni qo'llash, ulardan foydalanish deb talqin etiladi. Ko'pgina taqrizchi olimlar va o'qituvchilar biologiya darslarida o'yin topshiriqlardan foydalanishni ham, darslarni turli shakllarda tashkil etishni ham yangi pedagogik texnalogiya deb tushunadilar. Yangi pedagogik texnologiya bizning nazarimizda, ikki unsur birligidan iborat:

1. Biologiya ta'lim mazmunini to'g'ri belgilash.

2. Belgilangan ta'lim mazmuniga muvofiq keladigan zamonaviy metod vosita va usullarni qo'llash.

Yangi pedagogik texnologiya "o'qituvchi + o'quv topshiriq + o'quvchi" o'rtasidagi mutanosiblikka asoslanadi. O'quv topshirig'i, o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini bog'lovchi muhim bir xilqat bo'lib, u o'qituvchiga ta'lim jarayonining tashkilotchisi, boshqaruvchisi sifatida, o'quvchiga esa, shu murakkab jarayonning subyektiv (faol ishlovchisi) sifatida qarashni taqozo etadi.

Endilikda o'quvchi o'quv jarayonining obyekti, berilayotgan axborotlarni qabul qiluvchi emas, balki ijodiy faoliyat ko'rsatuvchi va berilgan o'quv topshiriqlarining faol bajaruvchisidir. Bu o'z navbatida, o'quv topshiriqlaridan foydalanishga ham yangicha munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanil-

moqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq.

Ayni vaqtda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng keng tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida va ularda oq‘tiladigan fanlarda keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Didaktikada o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati sifatida ham ko‘rib chiqilgan, tadqiqotda ana shu nazariyalarga asoslanildi va quyidagilar e’tiborga olindi. Buning uchun biologiya o‘qituvchisi quyidagilarga e’tibor berishi kerak:

– biologiya o‘qitishning dastlabki vaziyatini tahlil qilish, o‘qitish jarayonida maqsadga erishish uchun mazmun, vosita va metodlarni tanlash. Ularning tahsil oluvchilar ruhiy va yosh fiziologik holati, motivi, ehtiyoji, qiziqishiga mosligi;

– o‘qitish jarayonini loyihalash, o‘qitish mazmuniga mos holda maqsadga erishish vositalarini tanlash, o‘quv materialini turli usullar yordamida yetkazish va tahsil oluvchilar tomonidan ongli o‘zlashtirilishiga erishish;

– o‘qituvchi va tahsil oluvchilarning o‘quv ishlari (o‘quv materialini yuqori darajada o‘zlashtirish uchun o‘quvchilar faoliyati)ni samarali tashkil etish;

– o‘qitish jarayonida teskari aloqani muntazam tashkil etish, nazorat va o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va o‘z-o‘ziga nazoratni amalga oshirish;

– tahlil va o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘qitish natijasi va maqsadga erishish darajasini aniqlash;

– darsni, o‘qitishning boshqa shakllari (darsdan, sinfdan, maktabdan tashqari ishlar, ekskursiyalar) bilan uyg‘unlikda tashkil etish. Ushbu vazifalarni hal etishda o‘qitish jarayonining tashkilotchisi va boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchi faoliyati muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi faoliyati yosh avlodning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy qobiliyatlarini uyg‘un ravishda faollashtirish maqsadida ta’lim mazmuniga binoan tahsil oluvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil qilish va boshqarish sanaladi.

Ushbu faoliyat quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

– o‘quv materialini tanlash, sistemaga solish, mantiqiy ketma-ketlikda loyihalash;

– tahsil oluvchilar uchun o‘quv materialini qabul qilish, anglash va ongli o‘zlashtirish imkonini beradigan o‘qitish vositalari, metodlari va shakllarini tanlash;

– pedagogik jarayonni yaxlit holda tashkil etish, ularning bilimlar tizimi va bilimlarni o‘zlashtirish usullarini egallashlariga erishish;

– o‘zining va tahsil oluvchilarning mashg‘ulot davomidagi faoliyatini rejalashtirish;

– tahsil oluvchilarning bilimlar va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish usullarini egallashga qaratilgan ongli faoliyatini tashkil etish va rag‘batlantirish metodlarini belgilash;

– tahsil oluvchilar tomonidan o‘quv topshiriqlarining bajarilish sifatini orttirish yo‘llarini belgilash;

– nazorat, o‘qitish natijalarini tahlil qilish va tahsil oluvchilar shaxsini faollashtirish bo‘yicha kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tadbirlarni belgilash;

– o‘qitish jarayonining natijasiga muvofiq mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarish yuzasidan tegishli o‘zgartirishlar kiritish.

O‘qituvchining ta’lim jaryonini boshqarish ko‘nikmasi o‘qitish jarayoniga faqat tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan cheklanmasdan balki, mazkur jarayonning subyekti bo‘lgan tahsil oluvchilar shaxsida axloqiy sifatlarning shakllanishi, ularning ma’naviy yuksalishi ko‘zda tutiladi. Bunday faoliyatni boshqarish uchun o‘qituvchi, avvalo, faoliyat turlari, unga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar, istiqboldagi maqsad va vazifalarni loyihalashi, olinajak natijalarni faraz qilishi zarur.

O‘qituvchining o‘qitish jarayonidagi rahbarlik roli tahsil oluvchilarning o‘quv materialini ongli va faol o‘zlashtirishini boshqarish sanaladi. Buning uchun o‘qituvchi:

– ilmiy jihatdan asoslangan o‘quv vazifalarini belgilashi;

– tahsil oluvchilar tomonidan ushbu vazifalarni amalga oshirishga imkon beradigan qulay psixologik muhitni vujudga keltirishi;

– o‘quv vazifalarini hal etish uchun amalga oshiriladigan faoliyat haqida aniq ko‘rsatma berishi;

– tahsil oluvchilar duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni faraz qilishi, ularga o‘z vaqtida va yetarli darajada yordam ko‘rsatishi;

– tahsil oluvchilarda o‘zaro hamkorlik, yordam, samimiy muloqot, burch va mas’uliyat hissini vujudga keltirishi zarur.

O‘qitish jarayonidagi o‘qituvchi faoliyatining har bir bosqichi tahsil oluvchilar faoliyatining xarakteri va shaxsidagi o‘zgarishlarga olib keladi. Shu sababli, o‘qituvchi faoliyatni amalga oshirishda muayyan bosqich, o‘quv fani va uning har bir bo‘limidagi o‘qitish maqsadlarini aniq bilishi va chuqur tahlil qilishi, ularni evolyutsion tarzda amalga oshirish yo‘llarini belgilashi lozim. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarning faoliyati o‘quv-bilish xarakteriga ega bo‘ladi. O‘qitish jarayonining samaradorligi o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini o‘qitish vazifalari va maqsadlariga muvofiq tashkil eta olish ko‘nikmalarini egallaganlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shunga ko‘ra yuqorida qayd etilgan fikrlar asosida biologiya o‘qitishga quyidagi talablar qo‘yildi:

– biologiya o‘qitishning barcha shakllarida dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, ekskursiyalarda ta’lim oluvchilar uchun ma’naviy axloqiy tarbiyalash, o‘qitishning samarali shakllari hamda usullarini ishlab chiqish va joriy etish;

– biologiyadan o‘qish, mustaqil bilim olishni individuallashtirish va tabaqalashtirish;

– biologiya o‘qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda samaradorlikka erishish;

– biologiya ta’limi jarayonida xalqning boy ma’naviy va intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlari asosida ta’limning insonparvarlik yo‘nalishini ta’minlash;

– biologiya o‘qitishda didaktika fani yutuqlarini pedagogik amaliyot bilan integratsiyasi mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish;

– biologiyadan o‘quv-uslubiy majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish;

– o‘quv jarayonini ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlashni amalga oshirish;

– milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi hamda umumbashariy qadriyatlar ustuvorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlari, huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitari-

ya-gigienik ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish;

– biologiya ta’limida o‘quvchi-yoshlar ongi va qalbiga milliy istiqlol mafkurasini singdirish, mafkuraviy tarbiyani bugungi kun darajasiga ko‘tarish.

Mamlakatimizning ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoillari, uzluksiz ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatish tamoiliga uzviy ravishda biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan tamoillar, mazkur tamoillar asosida pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan o‘qitish qonuniyatlari belgilandi, o‘qitish tamoillari mazmuni va mohiyatiga ko‘ra biologiya ta’limi mazmuni va ta’lim-tarbiya jarayonining yo‘nalishini belgilaydigan tamoillarga ajratildi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning asosiy g‘oyalarida ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yilgan talablari asosida uzluksiz ta’lim tizimidagi biologiya o‘qitishga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi, belgilangan o‘qitish tamoillari, qonunlari va biologiya ta’limiga qo‘yilgan talablar biologik ta’limni takomillashtirishni taqozo etadi.

Bundan ko‘rinib turibdi-ki, biologiya o‘qituvchisi biologiya fanida qo‘llanishi mumkin bo‘lgan usullar va texnologiyalar, grafik organayzerlar juda ko‘pdir va ular bilan birgina maqolada batafsil tanishishning imkoni yo‘q. Shu bilan birga kelajakda biologiya fanini o‘qitishda yangidan-yangi o‘qitish usullari va texnologiyalari shakllanishi shubhasiz. Umuman olganda biologiya fanining o‘qitishda foydalaniladigan usullar dars samaradorligini oshirishda qo‘llash o‘quvchilarning biologiya darslariga va biologiya faniga bo‘lgan qiziqishlarini oshishiga zamin yaratadi. Bu esa o‘quvchilarga kelajakda biologiya fani ma’lumotlarini chuqur o‘zlashtirishlari va biologiya ta’lim mazmunini to‘g‘ri anglashlari, ta’lim mazmuniga muvofiq bo‘lgan zamonaviy metod vosita va usullarni tushunishlari hamda bilishlari uchun interfaol metodlarni avvalambor o‘qtuvchining o‘zi yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019. 06/19/5847/3887-son

2. (Хуторской А. Ключевые компетенсии. Технология конструирования // Народное образавание. 2003,№5.55-61-б

3. Avlaev O.U., Jo‘raeva S.N., Mirzaeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashryoti, –T., 2017.

4. Turaev B.E., Isaev X., Akbarova G.O. // Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi [matn] // o‘quv qo‘llanma. –T.: “Barkamol fayz media”, 2018.

5. Tolipova Jamila Olimjonovna diss: “Biologiya o‘qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti” Qo‘lyozma huquqida UDK 57: 371-3 –T., 2006 38-B

6. www.ta’lim.uz, www.pedagog.uz, www.ziyonet.uz.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari;
Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Xilola UMAROVA, Risboy JO‘RAYEV, Xolboy IBRAGIMOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Ulug‘bek INOYATOV, Oynisa MUSURMONOVA, Shukurullo MARDONOV, Saidaxbor BULATOV, Ulfat MAHKAMOV, Barno ABDULLAYEVA, Dilyara SHARIPOVA, Lola MO‘MINOVA, Maqsudjon YULDASHEV, Nilufar ISAQULOVA, Mirodiljon BARATOV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Yashin ISMANDIYAROV, Sharibboy ERGASHEV, Alisher UMAROV, Shaxnoza XALILOVA, Muhayyo UMARALIYEVA

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Kamola RISKULOVA, Islom ZOKIROV

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz
t.me/xalqtalimi_jurnali. http://t.me/xalq_talimi_jurnali.

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Isakulov Rustam Mamirovich

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2024.